



## DEKART GNOSEOLIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Azimova Ch.A.

(katta o'qituvchi, TAQU)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15721698>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil  
Ma'qullandi: 15-Iyun 2025 yil  
Nashr qilindi: 23-Iyun 2025 yil

### KEYWORDS

ratsionalizm, empirizm,  
shubha, ong, bilish, intuitsiya,  
obyektivlik, subyektivlik, metod,  
induksiya, deduksiya, intellekt.

### ABSTRACT

*Maqolada Rene Dekartning gnoseologik qarashlari tahlil qilinadi. Unda Dekartning shubha metodi, "Cogito, ergo sum" prinsipining gnoseologik ahamiyati va ratsionalizmga asoslangan bilim nazariyasi yoritiladi. Muallif Dekartning subyekt va obyekt o'rtasidagi bilim munosabatiga oid qarashlarini hamda uning zamonaviy epistemologiyaga ta'sirini tahlil etadi. Maqola gnoseologiya va metodologiya o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi.*

Rene Dekartning gnoseologik qarashlari Yangi davr falsafasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. U gnoseologiyani mustaqil tahlil obyekti sifatida olib chiqdi va bilish jarayonining asosini aqlga tayangan holda izohladi. Dekart falsafasining markazida shubha turadi, lekin bu oddiy shubhalanish emas, balki metodik shubha bo'lib, bilimga erishishda muhim vosita sifatida qaraladi. U har qanday narsada shubhalanishni taklif qiladi, shu orqali shak-shubhalardan xoli, ishonchli bilimlar asosiga yetib borishni maqsad qiladi.

Faylasuf o'zining ayrim noizchilligiga qaramasdan, bilishda to'g'ri ilmiy uslubning buyuk ahamiyatiga ishonadi. Masalan, u shunday deb yozadi: "Hech qanday uslubsiz bironta haqiqatga erishishni orzu qilgandan ko'ra, hech narsani orzu qilmagan ma'qul" [1;177]. Uning fikricha, uslub haqidagi ta'limotning foydasi shuki, ilmiy mashg'ulotlarga uslubsiz kirishish, foydadan ko'ra, ko'proq zarar keltiradi. U uslubsiz bilishga intiluvchi kishini, garchi ko'rish qobiliyatiga ega bo'lsa ham, ko'rga o'xshatadi. Deduksiya bizga shuning uchun zarurki, bilishda "shunday tushunchalar borki, ular aniq bo'lmasa ham, lekin isbotlangan anglashlik tomonidan tushuniladi, agar ular hech qayerda uzluksiz fikr harakati va har bir alohida holati ravshan intuitsiya orqali aniq va tushunarli prinsiplaridan kelib chiqilsa, albatta" [2;93]. Ya'ni deduksiya bu aynan intuitsiyada bo'lmagan harakat yoki ketma-ketlikdir.

To'liq matematik enumeratsiya bunday yo'l orqali qo'lga kiritilgan bilimni yakunlaydi. "Bilimni yakunlash uchun enumeratsiya zarur, chunki faqatgina enumeratsiya tufayli bu tushunchalar haqida mustahkam va aniq fikrga ega bo'lamiz. Uning yordamida hech nima e'tiborimizdan chetda qolmaydi va bu hamma narsa haqida ozmi-ko'pmi bilib olamiz" [3;287].

Lekin u bir vaqtda uni davom ettiradi va yana "boshlaydi", ya'ni jarayonning uzluksiz namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Induksiya tomonidan qamrab olingan barcha narsa intuitsiya bilan o'zlashtiriladi, bilimning yagona qismiga aylanadi; biroq bunda biz yana bitta intuitiv harakat bilan "qabul qilingan" yakuniy obrazga duch kelamiz. Shunday yo'l bilan

rivojlanayotgan tizim har qadamda ularni shubha ostiga olib o'zining asoslariga qaytaveradi. Shubha ongning "shubhalanadigan" qobiliyati bilim tizimining yagona aniq manbaidir va shubha bilim rivojlanishining yagona vositasidir. Dekart fikricha, ushbu vaqtgacha axloq omili hisoblangan shubha endi metodologik, metodik shubhaga aylandi. Barcha narsada shubhalangan Dekart, sxolastik qonun - qoidalaridan tozalanib, ko'p bo'lmasa ham, lekin mustahkam asoslarga o'z tizimini qurishi mumkin deb o'ylaydi. Dekart fikricha, metod inson quroli hisoblanadi va u o'zaro ta'sirning metod bo'lib quyidagilarga taqaladi: metod insonning alohida qobiliyatlarini mukammallash-tiradi[4;166]. Bu oddiy, bo'linmaydigan harakatlarga kiritilgan qobiliyatlar tahlilida sodir bo'ladi. Lekin, bunday ko'rinishda ular konkret individning u yoki bu konkret xususiyati bilan konkret bog'liqligini yo'qotadi va metod elementiga aylanadi. Bu metoddan foydalanishdagi qurolli jihatdir, ya'ni faoliyat qurolidir. Biroq, Dekart metodining asosiy xususiyati – metodning faoliyat obyektiga qaratilganidadir. Subyekt-obyekt munosabatini o'rganish falsafaning bosh gnoseologik masalasini qo'yishga olib keladi. Dekart, har qanday faylasufdek, o'zi uchun ushbu muammoning yechimini topishi kerak edi. Uning bilish nazariyasi qisqacha XII - qoidasida izohlangan [5;189]. Uning asosiy mazmuni quyidagicha:

1. Birinchi navbatda, shuni anglash kerakki, barcha tashqi his-tuyg'ular tana a'zolarini tashkil etganlari uchun, ularni obyektlarga harakat yordamida qo'llasak ham, tuyg'ular o'zini passiv darajada xuddi muhr shaklini qabul qilganidek, his etadilar.

2. Tashqi hislar obyekt tomonidan harakatga kelganidan so'ng, qabul qilingan shakl shu zahotiy oq tananing boshqa qismiga xabar beradi va shunda hech qanday tabiiy his bir joydan boshqa joyga ko'chmaydi.

3. Umumiy his qiluvchi qism fantaziya va taassurotga, xuddi muhr tashqi hislardan keladigan shakllarni va g'oyalarni mumg muhrlaganidek ta'sir qiladi.

4. Shuni bilish kerakki, harakatlanuvchi kuch yoki nervlar miyada o'z boshlanishlariga ega, u yerda ularni harakatlantiruvchi taassurotlar joylashgan.

5. Barcha narsalarni anglashga yordam beruvchi kuch ma'naviydir, ushbu kuch umumiy his qilish qismidan kelayotgan shakllarni qabul qiladi yoki xotiraga qolgan shakllar bilan harakatlanadi yoki yangilarini paydo qiladi [6;113].

Dekart metodi "soddalashtirish"( aksioma-yakuniy geometrik obraz) usuliga olib keladi(regress) va bu regressiv isbot hisoblanadi. "Soddalikdan" kelib chiqish isbotga olib keladi va ular parallel harakatlanadi. U, Dekart fikricha, o'sha bosqichda qaytadi. Bu "qaytish" punktida, yakuniy regress nuqtasida paydo bo'lgan xulosa qoidasi bo'yicha sodir bo'ladi va isbotni anglashga yordam beradi. Shuning uchun xulosa isbotga ("anglash") o'xshaydi ("o'sha bosqichda") va shu bilan bir qatorda o'xshamaydi ham.

Dekartning bu ta'limoti faqat sxolastlarga qarshi qaratilgan bo'lmay, balki o'z zamonasining ko'pchilik tabiatshunoslariga ham qarshi qaratilgan edi. Chunki o'sha davrda ko'pchilik tabiatshunoslar tajribaviy tekshirishni mistika bilan, astronomiyani astrologiya bilan, ximiyani alximiya bilan aralashtirib yuborar edilar. Dekart tomonidan asos solingan uslub o'sha zamon tabiatshunosligidagi yangi bosqich edi. U o'z zamondoshlari va o'tmishdoshlari tomonidan yaratilgan empirik tekshirish uslubini qayta ishladi, muayyan tizimga keltirdi, falsafiy umumlashtirdi va asosladi. Uning ta'limoticha, haqiqiy bilishning asosi va mezoni faqat soddalik, va aniqlikdir. Bundan ko'rinadiki, Dekart fikricha, u faqat intellektga xosdir. Ilmiy tekshirishning boshlang'ich bosqichi bo'lib o'z - o'zidan ravshan

qoidalar bo'lishiga yana o'sha geometrik aksiomalar misol bo'ladi. Dekartning fikricha, yaxshi aqlga ega bo'lishning o'zi kifoya emas, balki uni to'g'ri qo'llay olish muhimdir. Dekart ta'limoticha, hamma odamlarda aql, tafakkur qobiliyati bir xil. Insonlardagi intellektual daraja o'rtasidagi farq esa, uslubiy fikrlashga bog'liqdir. Umuman, Dekart ilmiy uslubining asosiy prinsiplari shulardan iborat.

Agar F.Bekon "Yangi Organon" asarida haqiqiy foydali dalillarni amaliyotda induksiya usuli bilan hosil qilgan bo'lsa, Dekart bu borada ratsional, deduksiya uslubini ma'qul ko'radi. Shunday qilib, u to'g'ridan-to'g'ri bir-biriga qarama-qarshi O'rta asr falsafiy sxolastikasining xayoliy, quruq muhokama va safosataga asoslanganligini isbotlaydi. Bekon singari Dekart ham shubhasiz deb hisoblangan bilimga shubha bilan qaraydi. Bilishning birdan-bir haqqoniy usulini deduksiya deb biladi. U na fikrlash, na his eish natijalari haqqoniy bilim bermaydi, deydi. Shuning uchun, ishni uslubiy shubhalanishdan boshlash kerak, deb ta'kidlaydi. Toki, u, umumiy bo'lishidan qat'iy nazar, bilishda hech bir shubhaga o'rin qoldirmasligi lozim. Ammo har qanday holatda, har qanday vaziyatda ikkilanish, shubha qilish hukm suradi. Hamma narsaga shubha qilish mumkin. Xususan, Yerning mavjudligiga, o'z tanasining borligiga, shubha qilayotgan kishi shubhasining mavjudligidan boshqa hamma narsaga shubha qilishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Dekart chin bilim mavjud, deb tasavvur qiladi va shunga qarab intilardi. Fikrlash harakatidan kelib chiqib, u borliqni to'g'ri bilmoqlikning zarurligini isbotlamoqchi bo'ladi. Bunga faqat aqlni ishlatish va deduksiya yo'li bilan bilishning tajribalarga, his etish ma'lumotlariga asoslanishini inkor etmagan holda erishish mumkinligini aytadi.

Shunday qilib, Dekart o'zining deduktiv metodining asosiga matematika fanini qo'yadi, ya'ni, uning fikricha, har qanday muammo, qandaydir noma'lum jihatning ma'lum bir omil bo'lishiga asos bo'lishi kerak, shu orqali uning yechilishini aniqlash mumkin deydi. Faylasuf gnoseologiyasidagi birinchi masala, ishonchli bilim olish mumkinligi masalasi va u bilan belgilanuvchi bunday bilimni olish metodi muammosidir. Bilim to'g'riligining mezoni, uning fikricha, amaliyot emas, balki inson ongidir. Bilishning birdan-bir to'g'ri yo'li esa deduksiyadir. Deduksiya bu – shunday aql faoliyatiki, uning yordamida qandaydir xulosalarga kelamiz, kerakli bilimga erishamiz. Deduksiya yordamida olingan xulosalar aniq va o'zgarmasdir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Декарт Р. Рассуждение о методе. – М.: Наука, 1994. – С. 177
2. Дмитриев Т.А. Проблема методического сомнения в философии Рене Декарта. Дисс.канд.филос. наук. М.: 2004. – С. 93
3. Соколов В.В. Философия Декарта. – М.: Мысль, 1989. – С. 287
4. Қаранг: Декарт Р. Сочинение в 2-х томах.Т.1. – М. :Мысль, 1994. – С. 166
5. Қаранг: Фишер Куно. История новой философии: Рене Декарт. – М.: Издательство, 2004. – С.189
6. Қаранг : Майданский А.Д. Проблема универсального логического метода в работах Декарта и Спинозы. Дисс. док. филос. наук. – М.: 2000. – С.113